



TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI TASHKENT STATE UNIVERSITY OF AGRICULTURE

ISSN: 2181-7774
ISSN: 3060-5032

O'ZBEKISTON AGRAR FANI XABARNOMASI & THE ROLE OF AGRICULTURE AND MEDICINE IN SCIENCE



**“Yangi O‘zbekistonda ilm-fan qaldirg‘ochlari”
mavzusidagi ikkinchi talabalar respublika
ilmiy-amaliy anjuman to‘plami**

Maxsus son № 1/1(19) 2025

II QISM

Fevral 2025



<https://t.me/agromedscience>



<https://www.agromedscience.com>

**YANGI O'ZBEKISTONDA ILM-FAN QALDIRG'OCHLARI MAVZUSIDAGI IKKINCHI
TALABALAR RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI**

O'ZBEKISTON AGRAR FANI XABARNOMASI



THE ROLE OF AGRICULTURE AND MEDICINE IN SCIENCE XALQARO ILMIY JURNALI

1/1(19) 2025 (MAXSUS SON)

2-QISM



TOSHKENT 2025



**O'ZBEKISTON AGRAR FANI XABARNOMASI ISSN: 2181-7774
THE ROLE OF AGRICULTURE AND MEDICINE IN SCIENCE ISSN: 3060-5032 № 1/1(19) 2025**

TAHRIRIYAT HAY’ATI

**O‘ZBEKISTON AGRAR
FANI XABARNOMASI**
ISSN: 2181-7774

**THE ROLE OF
AGRICULTURE AND
MEDICINE IN SCIENCE**
ISSN: 3060-5032

2025-yil 28-fevralda
“Yangi O‘zbekistonda
ilm-fan qaldirg‘ochlari
mavzusida”gi ikkinchi
talabalar Respublika
ilmiy-amaliy anjuman
to‘plami.

**IJROCHI DIREKTOR:
TURG‘UNOV AZIZBEK**

**DIZAYNER:
ABDUROZIQOV ABDUSALOM**

**N.Oblomuradov
S.Islamov
K.Sultonov
A.Abduvasikov
D.Mamadiyarov
U.Raxmanov
Sh.Durxodjayev**

**G.Shodmonova
D.Mustafakulov
U.Akramov
S.Isroilov
O‘.Soatov
A.Botirov
Z.Sodikova
B. Nurmatov**

Sho‘balarga ma’sul tahrir hay’ati a’zolari

**A.Qurbonov
F.Qurbonov
M.Adilov
D.Janakova
B.Nortojiyev
N.Ne’matov
N.Shadiyeva
B.Nosirov
J.Namazov
M.Amanova**

**F. Safarova
A.Batirova
O.Ostonov
S.Xolmirzayeva
S.Nurtayev
M.Xamidov
X.Isanov
G.Norinboyeva
D.Saidova**

**O‘ZBEKISTON AGRAR FANI XABARNOMASI O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
2022-yil 25-fevralda 1548-sonli guvohnoma bilan qayta ro‘yxatga olingan.**

1 yilda 6 marta chop etiladi. Tel: (+99871) 260-44-95.

Faks: 260-38-60. E-mail. nurmatovbaxtiyor868@gmail.com

**THE ROLE OF AGRICULTURE AND MEDICINE IN SCIENCE xalqaro ilmiy jurnali
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2024-yil 5-dekabrda taqdim etilgan № 516376
GUVOHNOMA asosida faoliyat yuritmoqda. 1 yildan 12 marta chop etiladi.**

E-mail. agriculture.medicine.journal@gmail.com.

Tel: (+99899) 878-31-57. Rasmiy telegram kanal. <https://t.me/agromedscience>

Jurnalning rasmiy sayti: www.agromedscience.com

**Manzil: 100164 Toshkent, Universitet ko‘chasi 2-uy Toshkent davlat agrar universiteti.
Maqola mazmuni va unda keltirilgan faktlar va raqamlarning to‘g‘ligi uchun muallif javobgardir.**

KIRISH SO‘ZI

Assalomu alaykum“Yangi O‘zbekistonda ilm-fan qaldirg‘ochlari” mavzusida o‘tkazilayotgan respublika ilmiy-amaliy anjuman ishtirokchilari va talaba-yoshlar

Bugungi kunda Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining muhim ustunlaridan biri – **ilm-fan va ta’lim sohasini rivojlantirish, yosh avlodning intellektual salohiyatini yuksaltirishdir**. Mamlakatimiz rahbariyati tomonidan yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning ilmiy izlanishlari va innovatsion g‘oyalarini ro‘yobga chiqarish uchun keng shart-sharoitlar yaratilib, qator muhim qaror va dasturlar hayotga tatbiq etilmoqda.

2020–2030-yillarga mo‘ljallangan Ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi, 2021–2023-yillarda ilm-fanni rivojlantirish bo‘yicha davlat dasturi, yosh olimlarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida ajratilayotgan grantlar – bularning barchasi ilm-fan rivojiga katta turtki bo‘lmoqda.

Yoshlar siyosati bo‘yicha olib borilayotgan islohotlar haqida gapirganda joriy yil 14-fevral kuni Prezident Shavkat Mirziyoyevning yoshlar bilan videosektor shaklida o‘tkazgan uchrashuvi haqida ham alohida to‘xtalib o‘tish joiz. Uchrashuv davomida davlat rahbari yoshlarni **“Xalqimizning oltin fondi”** deb atab, ularning mamlakat taraqqiyotidagi muhim rolini yana bir bor ta’kidladi.

Ta’lim sohasida sezilarli o‘zgarishlar amalga oshirilayotganligi, qisqa davrda oliygohlar soni **3** barobar oshirilib, bugungi kunda yoshlarning **42 foizi** oliy ta’lim bilan qamrab olinganligi, shuningdek hozirda dunyodagi nufuzli universitetlarda **1 500** dan ziyod O‘zbekistonlik talabalar tahsil olishi uchun yaratilayotgan shart-sharoitlarning barchasi ertangi kun egalariga bildirilgan katta ishonchdir.

Ushbu anjumanga Agrar sohadagi oliy ta’lim muassasalari talabalaridan iborat yoshlar tomonidan **250** yaqin maqolalar kelib tushdi. Ushbu maqolalar **9** ta sho‘balarda **26-fevral** kuni sho‘balar sekiyalarda muhokama qilindi. Shuningdek, **“Ideaton –Uzbekistan 2030”** g‘oyalar va **“Top 10 Innovator”** startup tanlovlarida **100** yaqin talabalar o‘z ishlanmalari bilan ishtirok etdi.

Universitetimizda bugungi kunda **14 605** nafar talaba tahsil olmoqda. Ularga **26** ta kafedra va **549** nafar professor-o‘qituvchilar ta’lim va tarbiya berib kelmoqdalar. Kafedralar qoshida **“Ustoz-shogird”** tizimi asosida 2023/2024-o‘quv yilida **28** ta ilmiy to‘garaklar faoliyat yuritgan va **503** nafar talaba jalb qilingan bo‘lsa, hozirda **62** ta ilmiy to‘garaklar hamda **800** nafardan ortiq talabalar to‘garak a‘zolari hisoblanadi. Bu o‘tgan yildagiga nisbatan **62,8 %** yuqori ko‘rsatkichni tashkil etadi.

Shuningdek, kafedralar tarkibida **27 ta** o‘quv kurs tashkil etilib, **300** nafar talaba kurs a‘zolari hisoblanadi.

Ushbu ilmiy to‘garak va o‘quv kurslariga a‘zo bo‘lgan talabalar 2023/2024-o‘quv yili hamda 2024/2025-o‘quv yilining 1-semestrda ustozlari bilan birgalikda jami **1091** ta tezis va ilmiy, ommobop maqolalar chop ettirgan. Shundan, O‘zbekistonda OAK ro‘yxatidagi jurnallarda chop etilgan maqolalar soni – **350** ta, Xalqaro konferensiyalar va jurnallarda chop etilgan maqolalar soni - **740** ta, **Patent** va **DG**Ular soni -**15** tani tashkil etadi.

2023/2024-o‘quv yilida 10 nafar talaba O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va nomli davlat stipendiyalari sovrindorlari, **23** nafar talaba 10 turdagi Toshkent davlat agrar universiteti nomli ichki stipendiyasi sovrindori bo‘lgan. Bu yil **6** nafar talaba **“Mirzo Ulug‘bek vorislari”** tanlovining Respublika bosqichi g‘olibligini qo‘lga kiritdi. Albatta bu yutuqlar o‘z-o‘zidan qo‘lga kiritilmagan, ularning barchasi universitetimizda **Ustoz-shogird** tizimi bo‘yicha amalga oshirilib kelinayotgan ishlarning natijalaridir desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

2024/2025-o‘quv yilida **11** nafar talaba O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va nomli davlat stipendiyalari sovrindori bo‘ldi.

YANGI O‘ZBEKISTONDA ILM-FAN QALDIRG‘OCHLARI MAVZUSIDAGI IKKINCHI TALABALAR RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI

Bugungi konferensiya ham aynan shu yo‘nalishda olib borilayotgan ishlarni tahlil qilish, istiqboldagi vazifalarni belgilash va ilm-fan qaldirg‘ochlari bo‘lmish yosh olimlarning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rnini yanada mustahkamlashga qaratilgan. Yangi O‘zbekistonning ertangi kuni bugungi yoshlarga bog‘liq ekanligini inobatga olib, ularning ilmiy faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, xalqaro maydonda raqobatbardosh kadrlar tayyorlash va innovatsion loyihalarni hayotga tatbiq etish – asosiy maqsadimizdir.

Shu boisdan, konferensiyada yoshlarning ilmiy izlanishlarini rag‘batlantirish, ularning innovatsion tashabbuslarini amaliyotga joriy etish, ilm-fan sohasidagi davlat siyosatini yanada takomillashtirish bo‘yicha dolzarb masalalar muhokama qilinadi. Prezidentimizning ta‘biri bilan aytganda: **“Bugungi yoshlarga yaratib berilgan sharoit – bu ertangi qudratli O‘zbekistonning mustahkam poydevoridir.”** Shu boisdan, bu imkoniyatlardan to‘g‘ri va samarali foydalanish har bir yosh olimning oldidagi muhim vazifadir.

Konferensiya doirasida ilm-fan sohasidagi eng dolzarb muammolar, ularning yechimlari hamda ilmiy-innovatsion rivojlanish istiqbollari haqida fikr almashamiz. Yangi O‘zbekistonning kelajagi – bilimli, izlanuvchan, fidoyi yoshlar qo‘lida ekanligini chuqur anglab, ularga ko‘rsatilayotgan e‘tibor va yaratilayotgan sharoitlardan samarali foydalanish bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridandir.

**Bugungi ilmiy-amaliy anjuman ishiga muvaffaqiyatlar tilayman.
E‘tiboringiz uchun kata rahmat.**

*Toshkent davlat agrar universiteti rektori
N.N.Oblomuradov*

5-SHO‘BA

**ATROF-MUHITNI MUHOFAZA ETISH, ISTIQBOLLI
DORIVOR VA O‘RMON O‘SIMLIKLARNI YETISHTIRISHDA
ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH
HAMDA ILMIY ASOSLANGAN USULLARINI ISHLAB
CHIQRISH**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15011255>

**SADA QAYRAG'OCH (*Ulmus densa*) DARAXTI YOSH KO'CHATLARINI
YETISHTIRISH TEXNOLOGIYASI**

Jumayev Tolibjon Ganjiyevich,

Tabiiy fanlar va agrobiotexnologiya fakulteti, Biotexnologiya va
oziq-ovqat xavfsizligi kafedrası o'qituvchisi.

t.g.jumayev@buxdu.uz

Yarmuhammedov Jasur Mansurovich

Tabiiy fanlar va agrobiotexnologiya fakulteti, Biotexnologiya va
oziq-ovqat xavfsizligi kafedrası o'qituvchisi.

j.m.yarmuhammedov@buxdu.uz

Qahorova Jasmina Jamshedovna

Tabiiy fanlar va agrobiotexnologiya fakulteti, Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash va dastlabki
ishlash texnologiyasi yo'nalishi talabasi

qahhorovajasmina2@gmail.com

Annatatsiya. Bugungi kunda dunyo bo'ylab yildan –yilga gilobal iqlim isish ko'payib bormoqda . Bunining natijasida tuproq tarkibidagi suv parlanishi ko'payib tabiiy holda o'sadigan ayrim turdagi o'simliklar kamayib, cho'llanish ortib bormoqda. Shaharlarda aholini yashash sharoitlarini kom fort darajasiga ko'tarish, dam olishini ta'minlash, shahardagi sanitar holatni yaxshilash, mikroiklimni yuzaga keltirish va sog'lomlashtinivchi yashil hududlar maydonlarini kengaytirishda manzarali yashil daraxtzorlarning o'rni baland. O'zbekiston hududida tabiiy va suniy holda tarqalgan qayrag'och turkumlarini o'rgandik. O'rganish ishlarini respublikamizning hududlarida olib borildi. Bunda qoyrog'ochlarning qaysi muddatda ekilganligi, tuproq tarkibi, o'simlikni tuproqqa moslashish holati, shox-shabbalarining kengligi va tabiiy hamda antirapagen omillarning tasiriga chidamligini o'rgandik. Ushbu maqolada Biz tajriba uchun Sada qayrag'ochini oldik va uning biologik xususiyatlari, hayotiy shakillari, ko'paytirish usullari hamda xalq xo'jaligi va shaharsozlikdagi ahamiyati yoritilgan. Qayrag'och turkumi turlarining ilmiy va mahalliy nomlari keltirilgan.

Kalit so'zlar: Sada qayrag'och, O'rta Osiyo va Ozorboyjon Maydabargli qayrag'och, Bujum qayrag'och.

Аннотация; сегодня глобальное потепление климата увеличивается во всем мире из года в год . Это приводит к увеличению светимости воды в почве, уменьшению естественного роста некоторых видов растений и увеличению опустынивания. В городах декоративные зеленые насаждения играют важную роль в улучшении условий жизни населения, обеспечении отдыха, улучшении санитарной обстановки в городе, создании микроклимата и расширении площадей оздоровительных зеленых зон. Мы изучили роды вязов, которые распространены на территории Узбекистана как в естественном, так и в искусственном виде. Исследование проводилось в регионах нашей республики. При этом мы изучили, в какие сроки были посажены хвои, состав почвы, состояние адаптации растения к почве, ширину его ветвей и устойчивость к воздействию природных и антирапагенных факторов. В этой статье мы взяли вяз Sada для эксперимента и рассмотрели его биологические особенности, формы жизни, методы размножения, а также его значение в народном хозяйстве и городском планировании. Приведены научные и местные названия видов рода вяз.

Ключевые слова: Садовый вяз, Среднеазиатский и азербайджанский мелколистный вяз, Бужумский вяз.

Abstract; Today, year after year, gilobal climate warming is increasing around the world . As a result of this, there is an increase in desertification, as well as a decrease in certain types of plants that grow naturally, increasing the waterproofing in the soil. In cities, the role of ornamental Green

Groves is high in raising the living conditions of the population to the level of comfort, ensuring rest, improving the sanitary condition in the city, creating a microclimate and expanding the areas of healthy green areas. We studied the varieties of birch, which are distributed naturally and sunily on the territory of Uzbekistan. The study was carried out in the regions of the Republic. In doing so, we studied the duration of the planting of the cliffs, the composition of the soil, the state of adaptation of the plant to the soil, the width of the branches and resistance to the influence of natural and antirapagenic factors. In this article, we took Sada Birch for the experiment and covered its biological characteristics, life pictures, methods of reproduction and its importance in national economy and urban planning. Scientific and local names are given for the species of the butterfly genus.

Keywords: Sada Birch, Central Asian and Ozorboyjon spruce birch, Bujum Birch.

Kirish: Biologik xilma-xillikni saqlab qolish hamda kelajak avlodlarga o'simliklarni turlari sonini kamaytirmasdan saqlab qolish bizni tabiat oldidagi hamda kelajak avlodlar oldidagi burchimiz bo'lib hisoblanadi. Shu maqsaddan kelib chiqib atrofimizni o'rab turgan har bir o'simlikning biologik xususiyatlarini o'rganish, ular ustida tadqiqot ishlarini olib borishimiz zarur. O'simliklar olami barcha tiriklikni zarur manbalar bilan ta'minlabgina qolmasdan, estetik zavq berish, shaharlarda havo balansini bir miyorda saqlash, shahar shovqinini yutish, chang va mikroblardan tozalash kabi vazifani beminat bajaruvchilar hisoblanadi. Atrofimizni o'rab turgan ko'plab o'simliklar mavjud, har bir o'simlikning o'ziga xos xarakteri belgilari bor, ayrim o'simliklar faqatgina dorivor, ayrimlari oziq ovqat bo'lsa, qayrag'ochdoshlar oilasiga mansub Ulmus turkumi turlari o'zining biologik xususiyatlari bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu o'simlik asosan O'rta Osiyo va Ozorboyjonda yaxshi o'sadi, hamda 450-500 yil o'sib turadi. Yorum'likga talabchan, qurg'oqchilikka juda chidamli, sovuqqa hamda zararkunandalarga nisbatan chidamsiz. U tog'larning 1500 balandligigacha bo'lgan joylarda yaxshi o'sadi. Qulay sharoit bo'lsa uning bo'yi 10-15-m gacha yetadi. Shox-shabbasi qalin, shakli sharsimon, tik joylashadi. Shoxlanishi monopodial barglari novdalarida ketma-ket joylashadi barglarining shakli tuxumsimon shakilda. Qayrag'och mart oyining boshlarida havo haroratiga qarab 5-10 kungacha oralig'ida vegetatsiyasini boshlaydi. Mart

oyining oxiri aprel oylarida gullab mevalaydi urug'larine tezlik bilan yig'ishtirib olinmasa barcha urug'lar kichik va yingil bo'lganligi sababli tetib olish imkoni bo'lmaydi. [1].

Sada daraxti o'ta chidamli bo'lib, yuz yildan ortiq umr ko'radi. Mutaxassislarining ta'kidlashicha, qayrag'ochlar oilasiga mansub ushbu nabotot namunasi joy tanlamaydi. Xuddi yantoqqa o'xshab chuqur ildiz otib, qurg'oqchil, sho'rlangan yerlarda ham o'saveradi. Barglari tukchalar bilan qoplangani bois quyosh issiqligini o'tkazmaydi. Havodagi namlikni so'rib olishi tufayli bug'lantirish xususiyati kam. Shu bois ihotazorlar barpo etishda, asosan, sadadan foydalaniladi.

Obyekt va metodlari: Tadqiqotning obyekti sifatida Buxoro viloyati iqlim sharoitiga moslashtirilgan Sada qayrag'ochi, Buxoro viloyati Ilmiy tadqiqot stansiyasining Jondor tumani yer maydonlarida olib borildi.[3]

Turlarning ontogenez bosqichlarini o'rganishda T.A.Rabotnov (1950) tomonidan taklif etilgan, keyinchalik A.A.O'ranov va shogirdlari tomonidan takomillashtirilgan metodlardan foydalanildi.[2]

Asosiy qisim

Latent davrida o'simlik urug'larining pishib yitilishidan to unib chiqquncha bo'lgan o'zgarishlar kuzatildi. Virginil davrida yosh nihollar bargaining shakl o'lchami, yuvenil bosqichda burglar sonining o'lchami, virginal yoshidagi o'simliklarda barglarning o'lchami, novdalarning miqdori, uzunligi, o'simliklarning o'sish jadalligi va ildiz tuzilishi o'rganildi [4,5].



.a.



.b.

1-rasm. Sada qayrag'och. Turkumi turlarining virginil davri:

a) bir yillik holati, b) ikki yillik holati

Urug'larning unuvchanligini botanik tadqiqotlarda keng qo'llanib kelinadigan M.G.Nikolayeva (1982) metodi yordamida aniqlandi. Bunga ko'ra urug'ning unuvchanligi, o'sish energiyasi, dala sharoitida urug'unuvchanligi, ekish muddatlarining tasiri, va urug'larga xususiyatlariga e'tabor qaratildi.

Urug'lar ekish natijalariga ko'ra 10m ga 100 dona urug'lar ekiladi. Ekishdan oldin urug'lar qo'l bilan ishlov beriladi. 1 dona urug'ning og'irligi o'rtacha 0.007 gr ga tengligi aniqlandi. 1000 dona urug'ning og'irligi 5,4 gramm dan 7,5 gramm gacha kelishi aniqlandi.

Tajribaning keying bosqichida yangi unib chiqqan yosh o'simlik ko'chatlarning morfologik va biologik xususiyatlari o'rganildi. Tajribaning

ikkinchi yilidan boshlab vegetatsiya jarayonida urug'idan ekilgan ko'chatlarning o'sish ko'rsatkichlari qayd etib borildi. Tajriba jarayonida 2023-yil 10 sotix maydonga bahor faslida fevral oyida qayrag'och urug'lari ekildi. Urug'lar balandligi 15-18 sm balandlikdagi egatlarga ekildi. Urug' ekish chuqirligi 0,5-1 sm qilib olindi. Urug'lar unish davrida egatlar doimo nam holda ushlanishiga harakat qilindi. Tajriba natijasida 10 sotiqlik maydonga urug'idan ekilgan qayrag'ochlarning 50-54% unib chiqdi. Unib chiqqan nihollar vegetatsiya ohirida 43-48% gacha saqlanib qoldi.

Tadqiqotlar mobaynida 2024-yili qayrag'och o'simligini qalamchalari ekildi.

YANGI O'ZBEKISTONDA ILM-FAN QALDIRG'OCHLARI MAVZUSIDAGI IKKINCHI TALABALAR RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI



**2-rasm a.Sada qalamchalarini tayyorlash.
b.Sada qalamchalarini ekish jarayoni**

Barcha qayrag'och turlari ildiz qalamchasidan yaxshi ko'payadi. Biz ham Sada qalamchalarini noyabr oyida tayyorladik. Bunda qalamchalar uzunligi 15-18sm qilib olindi, diametri 1-3sm qilib olindi. Qalamchalarni sizod suvi chiqmaydigan yerdan maxsus o'ralar qazilib (chuqurligi 35 sm kengligi 20 sm) ularni ustidan 10sm qalinligida samon to'shb ko'dik .

Qalamchalar egatda bir-biridan 10 sm masofada (egatlar orasi 70-80 sm) ekildi va bunda 1gektarga 140 ming dona qalamcha

sarflanadi. Qalamchalar zaxlatib sug'orildi. Kuzatuvlar jarayonida bir yillik nihollar maksimal balandligi 1,5m, o'rtacha balandligi 1m ga o'sganligi kuzatildi. Bir yillik nihollarga kuz faslida payvand solindi, payvandlarning oralig'i. Ikki yillik nihollarning maksimal balandligi 3m, qolgan nihollar o'rtacha 2m ni tashkil qiladi. Tajribaning keying bosqichida yangi unib chiqqan yosh o'simlik ko'chatlarning morfologik va biologik xususiyatlari o'rganildi.

2 yillik Sada qayrag'och (*ulmus densa*) daraxti yosh ko'chatlarini ikki yillik ko'rsadgichlari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval.

№	Ko'chatlarning o'rtacha bo'ylari	Ko'chatlarning o'rtacha shohlanishi	Ko'chatlarning o'rtacha bariglar soni	Ko'chatlarning o'rtacha barglarini sathi sm ²
2 oylik	14 sm	-	5	14±1.04
4oylik	36sm	2	18	103.63±1.15
6 oylik	72sm	4	49	246.7±2.35
8 oylik	86sm	4	-	-
10 oylik	86sm	4	-	-
12 oylik	100sm	7	147	740.1±5.67
14 oylik	131sm	18	183	986.8±12.35
16 oylik	185sm	23	294	1480.2±16.24
18 oylik	190sm	26	314	1583.83±24.47
20 oylik	195sm	30	-	-
22 oylik	195sm	32	-	-
2 yillik	200sm	35	476	2323.4±36.25

Tajribaning ikkinchi yilidan boshlab vegetatsiya jarayonida urug'idan ekilgan ko'chatlarning o'sish ko'rsatkichlari qayd etib borildi.

Xulosa

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkiki, hozirgi kunda mamlakatimizda intraduksiya

YANGI O'ZBEKISTONDA ILM-FAN QALDIRG'OCHLARI MAVZUSIDAGI IKKINCHI TALABALAR RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI

qilingan va ko'kalamzorlashtirishda keng qo'llanib kelayotgan manzarali daraxtlarning turlari ko'paytirilmoqda.

Bunday manzarali daraxtlarni respublikamiz ilqlim sharoitlariga moslashtirish, yanada kengroq foydalanish uchun albatta ko'paytirish usullarini yaxshiroq bilishimiz lozim. Manzarali o'simliklar orasida qayrag'och

o'simligi alohida o'rinni egallaydi. Tajribamiz natijasida shuni aytishimiz mumkinki, ushbu o'simlikni vegetativ ko'paytirishda asosan bir va ikki yillik vegetativ novdalaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Generativ usulda ko'paytirishda tinim davrini o'tagan urug'lardan foydalanish tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. A.K. Qayimov, E.T. Berdiyev "Dendrologiya" T.: «Fan va texnologiya», 2012.
2. Байдеман И.Н. Методика изучения фенологии растений и растительных сообществ. – Новосибирск: Наука 1974.-С.154.
3. Yarmuhammedov, J. (2023). TUPROQ SHO'RLANISHINI MONITORING QILISHNING ZAMONAVIY USULLARI. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 43(43).
4. Yarmuhammedov, J. (2023). TOF QUDDUSI (STACHYS BETONICAEFLORA) NI GULLASH BIOLOGIYASI VA URUG' MAQSUDORLIGI. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 41(41).
5. Yarmuhammedov, J. (2023). AERVA LANATA JUSS. NI BUXORO VILOYATI SHAROITIDA UNIB CHIQISHI VA RIVOJLANISHINI O'RGANISH. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 43(43).
6. Tagaeva, M., Ro'ziyeva, Z., & Jumayev, T. (2024). Biotechnology of increasing the productivity of plants under the influence of microbiological preparations. In BIO Web of Conferences (Vol. 113, p. 01008). EDP Sciences.
7. Jumayev, T. G., & Jamshedovna, Q. J. (2024). MEVALARNI PISHGANLIK DARAJASINI ANIQLASH USULLARI.
8. Kamalova, N. B., & Urazbaeva, S. M. (2024). SHAHARLARNI KO'KALAMZORLASHTIRISHDA QAYRAG' OCH (Ulmus) DARAXTI AHAMIYATI VA KO'PAYTIRISH TEXNOLOGIYASI. *TADQIQOTLAR. UZ*, 40(3), 37-39.
9. Jumageldiyevna, G. N., Abduljalilovna, A. M., & Faxriddinovich, M. S. (2023). QAYRAG' OCH (ULMUS) TURKUMI. *Innovation: The journal of Social Sciences and Researches*, 1(6), 32-35.